



Sabohat MAJITOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
E-mail: sabohatmajitova@gmail.com

O'zFinPI dotsenti X.Tojiyeva taqrizi asosida.

FORS-TOJIK ADABIY TILI SHAKLLANISHIDA IRFONiy-TASAVVUFiy ATAMALARNING O'RNI

Аннотация

Irfoniy-tasavvufiy istilohlarni o'rganishdan maqsad - ularning badiiy nazmiy va nasriy asarlardagi mohiyat va maqomi, ma'no tovlanishlarini, semantik maydonini, qo'llanish doirasini ochiq ko'rsatib berishdan iborat. Zero, mutasavvif adiblarning asarlari adabiy til rivojlanishi va shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, qisqa muddatda adabiyotga kirib kelgan e'tiborga molik ijtimoiy va estetik hodisa sifatida adabiyotning katta qismini qamrab oladi. Shuning uchun she'riyat asosida yaratilgan har bir so'z yoki atama ijodkorning maqsadiga qarab shoir tomonidan tanlanadi va zamon mafkurasi bilan hamnafasligini, adib ijodiyotining borliq hayotga bog'liq tarzda qabul etishi, ularni makon va zamon halqalari qobig'ida tadqiq etish, adib asarlarining teran irfoniy-falsafiy xususiyatlarini aniqroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ramz, timsol, tasavvuf, irfoniy terminlar, shoirlik mahorati, ma'noviy talqin, she'riy obraz.

РОЛЬ МИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПЕРСИДСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Цель изучения суфийских терминов – наглядно показать их сущность и положение, значения, смысловое поле, область применения в поэтических и прозаических произведениях. Ведь творчество суфийских писателей как прекрасное социально-эстетическое явление, вошедшее в литературу за короткий период времени, охватило значительную часть литературы и сыграло важную роль в развитии и становлении литературного языка. Вот почему каждое слово или термин, созданный на основе поэзии, выбран поэтом по замыслу творца и соответствует идеологии того времени. В статье мы попытались изучить роль суфийских терминов в формировании персидско-таджикского литературного языка на примере творчества первых суфийских поэтов.

Ключевые слова: Символ, мистика, мистические термины, поэтическое искусство, духовная интерпретация, поэтический образ.

THE ROLE OF MYSTICAL TERMS IN THE FORMATION OF THE PERSIAN LITERARY LANGUAGE

Annotation

The purpose of studying Sufi terms is to clearly show their essence and position, meanings, semantic field, scope of application in poetic and prose works. After all, the creativity of Sufi writers as a wonderful social and aesthetic phenomenon, which entered literature in a short period of time, covered a significant part of literature and played an important role in the development and formation of the literary language. That is why every word or term created on the basis of poetry was chosen by the poet according to the creator's intention and corresponds to the ideology of that time. In the article we tried to study the role of Sufi terms in the formation of the Persian-Tajik literary language using the example of the work of the first Sufi poets.

Key words: Symbol, mysticism, mystical terms, poetic skill, spiritual interpretation, poetic image.

Kirish. Fors-tojik adabiy tilida irfoniy istilohlar va ularning kirib kelishi, leksik semantika ma'no jilolari bilan bog'liq masalalar bugungi kun tilshunoslik ilmiga yangi bir an'ana sifatida yrganilmoqda hamda ayrim tadqiqotlarda ularning adabiy tilda ma'mul tarzda qo'llanila boshlanishi, keng tarzda ishlatilishi umumiy xarakterda ko'rsatib o'tilgan. Adabiy, tarixiy va ilmiy sarchashmalarda ma'lumot keltirilishicha Bobo Tohir Uryon, Ahmadi Jom, Abo'said Abulxayr ilk mutasavvif shoirlardan hisoblanishadi. Ularning ijodlari misolida irfoniy tasavvufiy istilohlarning tojik-fors tiliga kirib kelish oqimini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Jumladan, Bobo Tohir Uryon taronalariida irfoniy tasavvufiy istilohlarning asta sekinlik bilan talqin qilinishini kuzatish mumkin:

Хушо онун, ки аз по сар назунан,
Миёни шўъла хушку тар назунан.
Кунисту Каъбаву табхонаву дайр,
Саройи холй аз дилбар назунан [3].

Bobo Tohir Uryonning bu taronasini xalq tiliga muvofiq kuylagan va solikning holatini ifodalovchi atamalarni mavridida q'llagan. Jumladan, taronada "sho'la" (ilohiy

otash, haq nuri), "kunisht" (yahudiyalar toat ibodatgohi), "tabxona" (otashparastlar ibodatgohi), "dayr" (nasroniyalar ibodatgohi), "dilbar" (mahbuba, haqning ramziy ifodasi) kabi istilohlar ayni tasavvufga xos bo'lgan atamalar hisoblanadi. Yo in ki boshqa bir taronada:

Муро, эй дилбари му во такора,
Вагарна дар чахон бисёр кора.
Кучо парвои чун му сута дирй,
Чу му булбул ба гулзорат хазора [3].

Taronadagi «dilbar» (mahbuba, yor, haqning ramziy belgisi), «bulbul» (orif, haq didori talabgori, so'fii (tariqat soliki ma'nosida), «gulzor» (dunyo, borliq olami) kabi birliklar ham irfoniy mazmun kasb etganlar. Bu taronadagi farqli jihatlar shunda ko'rinadi kim, ularda xalqona ohanglar va lahjalarga yaqinroq uslubdagi ifoda tarzi ko'zga tashlanadi.

X-XI asr shoirlaridan biri Ahmadi Jom ijodiyotida ham tadrijiy ravishda irfoniy istilohlardan foydalanishlik ko'zga tashlanadi.

Рахи девонагон оқил чй донад?
Сафои сўфиён ғофил чй донад?
Ҳама ҳоким ҳақро ҳақ шиносанд,

Ҳақонқ ноҳақу ботил чӣ донад?
Ман аз дил сирри дил меғўям, аммо
Рамузи сирри дил бедил чӣ донад? [4].

(Devona, telbalarining yo'lini oqil kishi qanerdan bilsin? So'filar safosini g'ofillar qerndan bilsin? Hama hokimlar haqni haq desalar, Haqoiq nohaqlikni qanday bilsin? Men chin yurakdan dil asrorin aytaman, ammo qalbning asrorini bedillar qerndan bilsin?).

Bu qit'ada «so'fi» (haq didori tolibi), «g'ofil» (ramziy majoziy ma'noda tasavvufga yot, asror ilmidan xabarsiz kishilar), «safo» (qalb musaffoligi, poklik), «haq» (xudo), «sir» (ilohiy cir), «ramuz» (xufiyona sirru asror) kabi so'zlar ham tasavvuf leksikasiga xos bo'lgan so'zlardir.

X-XI asr mutasavvif shoirlaridan Abusaid Abulxayr ham o'z ijodida irfoniy istilohlardan keng miqyosda foydalangan.

Эй ишқи ту кушта орифу омиро,
Савдои ту гум карда нақўномиро.
Завқи лаби майгуни ту оварда бурун,
Аз савмаа Боязиди Бастомиро [1].

(Seni ishqing yo'lida oriflar o'lar, savdoying ko'yida badnom bo'larmiz. Sening la'li labing zavq va shavqi Boyazid Bostomiyni savmaadan chiqarar).

Bu she'riy parchada «ishq» irfoniy ramziy ma'noda ilohiy qudratdir, insonni ma'rifatga yo'naltiradigan kuchdir, insonni moddiylik asoslaridan poklaydi va inson (solik) vujudi aro otashdir. Inson (ma'shuq) qalbini soflaguvchi, kamolot ifodalovchi, iksiri a'zam, insonning mis vujudini oltinga aylantiruvchi kimyoviy unsur, badbaxtlik, falokat, illat, fisqu fujurlarni nobud qiluvchi ilohiy qudrat. Solikni Fano va Baqo darajasiga olib boradigan ishtiyoq, «orif» (tolibi Xudo, ilohiy ilmu ma'rifatga ega shaxs), «savdo» (orifning zavqu havasi, solik boshiga tushgan dard), «savmaa» (rahiblar va nasronylar ibodatgohi) [4] kabi ramziylikka asoslangan ayrim irfoniy istilohlarni kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan misollar asosida, aytish mumkin kim, tadrijiy ravishda mutasavvif shoirlar ijodida tasavvufiy istilohlarning muqim o'rin egallashi fors tojik adabiy tilida an'ana tusini olgan.

Tahlil va natijalar. XII-XIV asrlar tasavvufning madaniy va adabiy muhitdagi ta'siri va bu diniy, irfoniy, falsafiy, ijtimoiy va adabiy xarakterga ega bo'lgan oqimning barcha hayot jabhalarida muhim o'rin tutishi, shuningdek mazkur ta'limot adabiy tilning shakllanishi, uning boyishi, ramziyligini ta'minlab berganligi ham ta'kidlangan. Bu borada Sanoiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Hofiz, Sa'diy, Kamol Xujandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy-Foniy kabi badiiy so'z ustozlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Irfoniy-tasavvufiy atamalarining adabiy tilga kirib kelishidagi muhim omillardan Islom dini va nabaviy hadislarini keltirish mumkin. Ammo bu borada tasavvuf oqimining asoschilari va ular tomonidan yaratilgan tartib qoidalar, maxsus nizomlar, mazkur ta'limotning nazariy asoslari, irfoniy atamalarining badiiy adabiyotdagi majoziy va ramziy ma'no kasb eta boshlaganligi, tasavvufda yangidan-yangi oqimlar va raviyalarning shakllanishi, tasavvuf sarchashmalari – Mazdoyasno va Avesto dini, Moniy va Mazdak ta'limoti, nasroniy dini va buddizm ta'limotlarida mavjud ayrim jarayonlarning ta'sirini ham alohida ta'kidlash lozim. Aslida tasavvufiy istilohlarning adabiy tilda e'tibor paydo qilishi va muayyan o'rin egallashi, ijodkorlar asarlarida rasmiylashuvi va xalq tilida maqom topishi ijtimoiy-tabiiy hodisa sifatida qaralmog'i lozim. Zero til ham adabiyot ham ijtimoiy hodisalar zahirida shakllanadi va yo inqirozga yuz tutadi. Shuningdek irfoniy va irratsional aqidalarga ko'ra asarlarda tasvirlash mushkul bo'lgan asror ilmining unsurlari bayoni uchun ham kinoyatomuz va ramziylik xususiyatlariga ega bo'lgan til lozim edi.

Aslida tasavvuf ijtimoiy – irfoniy ta'limot sifatida yuzaga keldi va shakllandi va mazkur ta'limotning keng

miqyosda yoyilishi uning fors tojik adabiy tili sarfu nahvi (grammatikasi)ga hartomonlama mos kelishi, uning leksik jihatdan shakllanishiga ham o'z ta'sirini etkazdi. Tasavvuf xalq madaniyatini ulug'vorlik va yuksaklik sari yo'naltirdi. Ramziy va majoziy istilohlardan boy bo'lgan mazkur til faqatgina asror ilmi namoyandalarigagina ayon edi. Bu narsa mutasavvif shoirlar ijodida ko'proq qo'l kelar edi. Zero she'riyat tili ramziylikka asoslangan tildir. Agar nazariyotchilar aqidalariga asoslanadigan bo'lsak u individual amaldir. (F.de. Sossyur) [8]. Ayniqsa ilohiy ishq mohiyati, tariqat (solik kirgan ruhoniyo'ni) ning sirru sinoatlari, shoir shaxsiyatining lirik qahramon tafakkur tarzi bilan bog'liqligi uning orzu va armonlari, intilishlari, botiniy kechinmalari xufiyona sirru asror bo'lib, maxsuslikni, o'ziga xoslikni taqozo etadi va uning bayoni uchun qo'llaniladigan til faqatgina shoirning ijodiy va poetik mahoratiga bog'liqdir. Demak ijodkor qanchalik tasavvuf ta'limoti nazariyasi va amaliyasidan boxabar bo'lsa, uning asarlari tili va uslubi ham shunchalik ramziylik kasb etadi. Ramziylik esa fors-tojik adabiy tilining bu davrdagi eng muhim xususiyatlaridan biridir. Fors-tojik adabiy tilida tasavvufiy istilohlarning kirib kelishi bevosita Sanoiy G'aznaviy ijodidan sarchashma oladi. Irfoniy atamalar adabiy tilda tadrijiy ravishda maqom topganligini alohida ta'kidlash lozim. Zero «she'riy matndagi nutq birliklari shoir tomonidan birinchi bor muomalaga kiritiladi, so'ng boshqa ijodkorlar tomonidan bir qancha bor ishlatilgach umumtil sistemasiga o'tadi» [7].

Muhokama. Shu asosda, tasavvufiy istilohlarning adabiy tilga kirib kelishi va tilning lug'aviy tarkibini ta'minlashi bevosita badiiy adabiyotning yuksalish davrlariga, ijodkorlarning poetik mahoratlariga va ularning izlanuvchanligiga bog'liq hodisadir. Demak, badiiy adabiyot rivojlanishi adabiy tilning boyishiga, uning leksik va semantik xususiyatlari takomillashuviga, rangbarangligiga, strukturasi takomiliga olib keladi. Aksincha, tilning struktural va leksik qatlamlar jihatdan rivojlanishi so'z san'atining rangbarangligini, badiiy tasvir imkoniyatlarining kengayishini va ijodiy uslublarning takomillashuviga ham olib kelishi mumkin. Bu borada esa adabiyot vakillarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Sanoiydan to Jomiygacha bo'lgan davr va ulardan keyingi asrlarda faqatgina tasavvufiy istilohlar ma'noviy sistemasini qatlamida adabiy til tarixida qanchadan-qancha yuksalishlar va tanazzul bosqichlarini kuzatish mumkin. Bu tadrijiy takomillashuvlar adabiy til rivojlanishi jarayonida asrdan asrgacha mas, balki asardan asargacha mavjud masofada va yo muddatda sodir bo'ladi. Demak har bir ijodkor ijodi va asarlari misolida irfoniy istilohlarni leksik jihatdan tahlil qilish, ularni tasnif etish, sistema ichidagi so'zlar va birliklarning tarkibiy qismlarini izchillik bilan tadqiq etish, ularni tabaqalash zarur deb bilamiz.

Ayrim tilshunos olimlarning aqidalariga ko'ra irfoniy istilohlar arab tilidan bevosita fors-tojik adabiy tiliga kirib kelgan. Zero tasavvufda qalb, qurb, tavakkul, tariqat, ishq, ma'shuq, maqom, haqiqat, taqvo, tafrid, fano, baqo, sidq, javr, kibr, jazaba va shunga o'xshash juda ko'p atamalarni uchratish mumkin kim, ular arab leksikasiga xos bo'lib, bizning tilga iqtibos tariqasida kirib kelgan. Mazkur istilohlar tasavvufda muhim o'ringa ega.

Irfoniy istilohlar va diniy atamalar dastlab prozaik janrlar sistemasida paydo bo'lgan va keyinchalik ular poeziyada muhim o'rin egalladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek XII-XIII asrlarda fors tojik adabiy tilida irfoniy abstrakcionizm va simvolizmlarning boshlang'ich davri hisoblanadi. Shu qatorida tasavvuf ta'limotining axloqiy va ma'naviy tamoyillari zahirida ta'rifu tavsifga asoslangan qoliplar tanazzulga yuz tutdi va ularning o'rnini yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan, ilohiyot sarchashmalaridan bahramand bo'lgan ifoda tarzi, so'z birikmalari hamda leksik qatlamlar egalladi.

Tasavvufiy istilohlarning adabiy tilga kirib kelishi bilan tilning poklanishi yuzaga keldi, har xil fahshiyona va dag'al so'zlardan tilda parhez qilish rasmiyatga kirdi. Shoirlar ijodida axloqiy va ma'rifiy ma'naviy tamoyillar yanada kuchaydi. Tasavvufiy istilohlarning tilga kirib kelishi bilan adabiy tilning sayqallashuvi, leksik, semantik va uslubiy jihatdan takomillashuvini ta'minladi. So'z tasavvuf adabiyoti va uning til xususiyatlari haqida borar ekan, irfoniy atamalarning til jozibadorligini evalyutsion tarzda ta'minlaganligi, ifoda usullarini shakllantirganligini, poeziyada ijodkor imkoniyatlarini kengaytirganligini alohida ta'kidlash lozim. Zero Rumi, Attor, Hofiz, Jomiy, Navoiy kabi buyuk adiblar she'riyatida ma'nolar jarangini, so'zlar va tushunchalarning turkumlashuvini, ma'no taqozosi bilan

ularning leksik va semantik tasnifotini, ta'bir va istilohlarning tabaqalashuvini kuzatish mumkin.

Buyuk mutasavvif shoirlar ijodida mazkur tushunchalar ta'biri, ularning izohi va sharhu tafsiri alohida – alohida tadqiqotlarni taqozo etadi.

Xulosa. Istilohlar zamiridagi ma'nolar, ularning semantik strukturasiidagi ma'no belgilarini aniqlash, ularning yuzaga kelish omillarini aniqlash, so'zlar va atamalar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatib berish, irfoniy istilohlarning ma'no sistemasidagi muammolarni bartaraf etish bugungi tilshunoslik ilmining muhim asosidir. Shu nuqtai nazar zamirida tasavvuf adabiyoti, uning vakillari ijodiyotini yangicha talablar va tamoyillar asosida tadqiq etish, ijodkorning so'z boyligi ijodiy mahoratini o'rganish bugungi kun tilshunoslik ilmining muhim vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR

1. Абӯсаиди Абулхайр. Таронаҳои дилангез. //Тартибдиҳанда: Х.Шарифов. – Душанбе: Ирфон, 1986. - 208 с.
2. Ашъори ҳамасрони Рӯдакӣ. / Дар таҳти таҳрири А.Мирзоев. – Сталинобод: нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1958. - 407 с.
3. Бобо Тоҳири Урён. Таронаҳо / Таҳияи Наима Қаҳҳорова/. – Душанбе: Адиб, 1992. -80 с.
4. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965. -524 с.
5. Брагинский В.И. Символизм суфийского пути в “Поэме о море женщин” и мотив свадебного корабля // Суфизм в контексте мусульманской культуры. – Москва: Наука, 1989. - 38-51 с.
6. Куронбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Тошкент: Фан, 1994.
7. Мажитова С.Ж. Абдурахмон Жомий ғазалиётида “жон” тимсолининг ирфоний-тасаввуфий маънолари. Сўз санъати. 2023. № 6 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10800434>
8. Мажитова С.Ж. Смысловая композиция суфийских символов в газелях Абдурахмана Джами. Талқин ва тадқиқотлар журнали. Июнь 2024.12.(49).
9. Мухторов З. Лексика ирфонии ғазалиёти Саной. – Душанбе: Хумо, 2001. -128 с.